

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR VA INDIVIDUALLIK

Quvonch Qurvonboy o‘g‘li MAMIRALIYEV

Doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbekiston, Toshkent

ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ И ПОИСКИ НОВЫХ ФОРМ

В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Кувонч Курвонбой угли МАМИРАЛИЕВ

Докторант

Ташкентский государственный университет узбекского языка и

литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

FORMAL SEARCH OR INDIVIDUALITY IN UZBEK POETRY

Quvonch Qurvonboy o‘g‘li MAMIRALIYEV

PhD student

Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

UDC (UO‘K, УДК): 82-1/-19: 821.512.133

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Mamiraliyev Q.Q. O‘zbek she’riyatida shakliy izlanishlar va individuallik.// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — B. 201-218.

<https://doi.org/10.36078/1673348607>

Received: September 29, 2022

Accepted: October 17, 2022

Published: October 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Ushbu maqolada istiqlool davri o‘zbek adabiyotidagi individual janrlar o‘rganilgan. Muallif Anvar Obidjon, Azim Suyun, Farida Afro‘z kabi shoirlar ijodida uchraydigan “ignabarg”, “uchchanoq”, “qayirma”, “fiqra” kabi janrlarni tadqiq etadi. Ayni paytda, individual janrlarda yozilgan she’rlarning modifikatsiya hodisasiga ta’siri masalasiga ham o‘z munosabatini bildirgan. *Ignabarg, uchchanoq, qayirma, fiqra* kabi she’rlar boshqa janrlarga qiyosan tahlil etilgan. Davr she’riyatidagi shakliy izlanishlar va ijodkor individualligi masalasiga alohida e’tibor qaratgan muallif, Anvar Obidjon ijodida *ignabrg, uchchanoq* va *g‘azal* ko‘rinishidagi she’rlarni o‘rganadi. Shoirning o‘zi ham mazkur she’rlarni janr sifatida e’tirof etadi. Aslida, mazkur ijod namunalari ijtimoiy, psixologik jarayonlarda badiiy modifikatsiyaga uchragan she’rlardir. “Ignabarglarga” bir qatorli she’rlar bo‘lsa, “Uchchanoqlar” uch qatorli she’rlardir. Azim Suyunning “qayirma” she’rlarini Istiqlool davri o‘zbek she’riyatidagi shakliy izlanishlar mahsuli deb aytish mumkin. “Qayirma”lar to‘rt qatordan iborat she’rlardir. Har bir she’r “Ey, do‘st!” undovi bilan boshlanadi. Bu she’rda ham mumtoz adabiyotimizda ruboiy janri va to‘rtlik shakllarining qorishiq holati kuzatiladi. Farida

Afroʻzning *fiqra* va *tasbeh*larida ham diniy-tasavvuf tushunchalarning qorishiq holda kelishi kuzatiladi.

Maqolada qiyosiy-tipologik, sotsiologik, psixologik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit soʻzlar: shakl; mazmun; janr; ignabarg; uchchanoq; qayirma; fiqra; obraz; sheʼriyat; modifikatsiya; individual janr; modernizm.

Аннотация. В статье рассматриваются отдельные жанры/стихотворные формы узбекской литературы периода независимости. Автор исследует такие жанры, такие жанры, как *игнабарг*, *уччаноқ*, *қайирма*, *фикра*, встречающиеся в творчестве Анвара Обиджона, Азима Суюна, Фариды Афруз. Кроме того, он также выразил свое отношение к вопросу о влиянии поэзии, написанной в отдельных жанрах, на явление их модификации. Такие стихотворные формы, как *игнабарг*, *уччаноқ*, *қайирма*, *фикра* были проанализированы в сравнении с другими формами. Автор уделяет особое внимание вопросу о формальных поисках в поэзии независимости и индивидуальности поэта-творца, исследует в творчестве Анвара Абиджана стихи в формах *игнабарг*, *уччаноқ* и *газель*. По сути, эти образцы творчества — стихи, которые претерпели художественную модификацию в новых социальных и психологических условиях. *Игнабарг* — это одностроочные стихи, а *уччаноқ* — трехстрочные стихи. Стихи Азима Суюна *қайирма* можно назвать продуктом формальных поисков в узбекской поэзии периода независимости. *Қайирма* — это стихотворение, состоящее из четырех строк. В статье использованы методы сравнительно-типологического, социологического и психологического анализа.

Ключевые слова: форма; содержание; жанр; *игнабарг*; *уччаноқ*; *қайирма*; *фикра*; образ; поэзия; модификация; индивидуальный жанр; модернизм.

Abstrakt. This article provides information on particular genres in Uzbek literature during independence period. Genres such as “*ignabarg*”, “*uchchanoq*”, “*qayirma*”, “*fiqra*” found in the works of Anvar Obidjon, Azim Suyun and Farida Afruz were considered. The study provides opinions about the influence of poems written in individual genres on the phenomenon of modification. Poems such as “*Ignabarg*”, “*Uchchanoq*”, “*Qayirma*”, “*Fiqra*” have been compared with other genres. Particular attention is paid to formal researches in poetry and the creator’s individuality. Anvar Obidjon's work includes

poems in the form of «ignabarg», «uchchanoq» and ghazal. These works of art have undergone artistic modification in social and psychological processes. «Ignabarg» is a one-line poem, and “Uchchanoq” is important because it has a formal appearance that makes up three-line poem. Azim Suyun’s “qayirma” poems are one of the formal researches in Uzbek poetry during independence. “Qayirma” is four-line poem. Comparative-typological, sociological and psychological analysis methods were used.

Keywords: form; content; genre; ignabarg; uchchanoq; qayirma; fiqra; image; subject; poetry; modification; individual genre; modernism.

Kirish. Istiqlol davrida o‘zbek she’riyati mazmun va shakl jihatidan taraqqiy etib bormoqda. Rus adabiyotshunosi Belinskiyning “har davrning o‘z g‘oyasi bo‘lgani kabi o‘z shakllari ham bo‘ladi” degan so‘zlari istiqloq davri o‘zbek she’riyati misolida ham yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Xususan, individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar — *qayirma* (A. Suyun), *ignabarg*, *uchchanoq* (A. Obidjon), *fiqra* (F. Afro‘z) kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunday she’rlarda, asosan, didaktik ruh, donishmandlik, falsafiylik xususiyatlari kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, hozirgi o‘zbek she’riyatida ham an’anaviy bayt — ikki misrali she’r shakllari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mumtoz she’riyatimizdagi masnaviy va fard shaklan asos bo‘lgan bunday baytning mazmuniy, shakliy, uslubiy xususiyatlari tobora kengayib bormoqda.

Asosiy qism. Bunday she’rlarda shoirlar, asosan, hikmatomuz fikrlarini, olam va odamning yaralishi haqidagi tasavvurlarini, falsafiy mushohadalarini ifodalaydilar. Chunonchi, ikkilikning “*Sochilgan baytlar*” (Erkin Vohidov), “*Ikkiliklar*” (Mahmud Toir), “*Sachratqilar*” (Go‘zal Begim) kabi turlicha nomlanishi ham shakliy va mazmuniy o‘zgachalikka ishoradir. Shaklan ixcham (qisqa) va lo‘nda ifodalar bunday she’rlarda shoirga o‘z istaganini se’rga ko‘chirishi uchun to‘sqinlik qilmaydi. Bunda, ayniqsa, muallif mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ikkiliklarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Erkin Vohidov:

*Erinchoq kam yashar nimaga desak,
Yashashi uchun ham hafsala kerak.
Lab cho‘zishdan oldin o‘pgani,
Bosib olish kerak o‘pkani* (16, 6).

Birinchi baytda misralar 11 bo‘g‘inli — 6+5 tarzida turoqlangan barmoq vazni o‘lchovlariga to‘la mos keladi. Shoir birinchi “sochilgan bayt”dan hayotiy xulosa chiqarish, inson bu olamga nima uchun kelishi va qanday maqsadlarda yashashi kerakligini eslatib

o'tgandek bo'ladi. Keyingi bayt esa 9 bo'g'inli — 4+5 tarzida turoqlangan barmoq vazni qoidalaridan chetga chiqmasdan yozilgan. Unda yumor vositasida intim kayfiyat tasvirlanadi.

Mahmud Toir:

*Shohona kiyinib shoh bo'lolmaysan,
Tunda jilva qilib moh bo'lolmaysan.*

*Kim dardini elga ovoza qilur,
Shamolning shakliga andoza qilur (8,8).*

Shoirning ushbu “ikkilik”lari ham barmoq vazni qoidalari asosida yozilgan va 11 bo'g'inli — 6+5 shaklida turoqlangan. *Shoh va moh*, *ovoza va andoza* so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan va ta'sirchanlikni oshirgan. Keltirilgan ikkiliklarda ham didaktik kayfiyat yetakchilik qiladi va shamolning shakli kabi o'xshatishlar qo'llanilgan.

Go'zal Begim:

*O'tayotib daraxt tagidan
Osmon haqda o'yladim bir pas*

*Bir pas oy haqida xayolga toldim
Xayol qutisini sindirib shunda (5, 7).*

Go'zal Begimning birinchi “sachratqi”si 9 bo'g'inli — 4+5 tarzida turoqlangan, barmoq vazni qoidalariga muvofiq keladi, ammo she'rdagi ma'no modern kayfiyatning mahsuli. Barmoq vazni qoidasini buzib qo'ymaslik uchun shoir *haqida* so'zini *haqda* shaklida berib ketadi va bu bilan ohangdorlikni yanada kuchaytiradi. Xayolning sarhadsiz maydoniga to'siq bo'lmasligi uchun bu she'rida tinish belgilarini ham ishlatmaydi. Keyingi she'r ham barmoq vaznida 11 bo'g'inli — 6+5 tarzida turoqlangan. Bunda lirik qahramon oy haqida o'ylash uchun xayol qutisini sindiradi. Chunki faqat oyni o'ylash uchun qolgan xayollarni — xayol qutisini sindirish lozim, xuddi nafsni sindirgan kabi. E'tibor beradigan bo'lsak, qolgan “ikkilik”lardan farqli ravishda Go'zal Begimning “sachratqi”larida qofiya yo'q. Chunki bu she'rlarda ruhiyatning oniy holati tasvirlangan.

Bugungu kunga kelib adabiyotshunosligimizda bir misralik, ikki misralik, uch misralik she'rlarga ham alohida janr sifatida qarash mavjud. XVI asrda ingliz adabiyotshunosi Ben Jonson bir misrali she'r mavjud ekanligini ta'kidlagan edi (3, 182). Adabiyotshunos U. To'ychiyev birliklarni “nasriy she'r” deb nomlaydi. Albatta, bunday she'rlarda shoirning individualligi va davr muhiti katta rol o'ynaydi. Rus olimi N. L. Stepanov janr haqida shunday yozadi: “Janr o'zgarmaydigan yoki manguga shakllangan emas, u o'sib va o'zgarib, nafaqat mazmunni to'ldirib, balki o'z strukturasini ham o'zgartirib boradi”.

Tadqiqotchi Q.Yulchiyev o'zining “O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasi” mavzusidagi tadqiqotida *ignabarg*, *uchchanoq*, *fiqra* kabi she'r shakllarini janr sifatida tahlil qilishga

harakat qilib, ko'plab manbalardan misollar keltiradi. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da bir misradan iborat she'rga qadimgi davrda she'riy aforizm deb qaralgani ta'kidlangan (7, 202). 2010-yili chop etilgan lug'atda esa mualliflar guruhi bir qatorli she'rlarni misra deb atashdi va mumtoz adabiyotda Bobur ijodida, zamonaviy o'zbek she'riyatida esa Anvar Obidjon, Ulug'bek Hamdam, Shermurod Subhon ijodida uchrashini qayd etganlar. Demak, bunday shakldagi she'rlarning vujudga kelishida shoirning individual mahorati, ijodiy laboratoriyasi, davrning ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik jihatdan o'zgarishi va she'riyatning erkinlashuvi katta ahamiyat kasb etadi. "Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi"ni o'rgangan M. Mamatqulov moniylik lirikasiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi:

- 1) tovush, so'z va misralar takrori yetakchi;
- 2) bog'inlar miqdori xilma-xil;
- 3) bir she'r tarkibida turli she'riy shakllar mavjud;
- 4) bir she'r doirasida har xil qofiya shakllari mavjud (8, 8).

Demak, bundan ko'rinadiki, bir she'r tarkibida turli she'r shakllari mavjud bo'lgan, biroq ular mustaqil janr sifatida qayd etilmagan. Bo'g'inlar miqdori ham turlicha bo'lgan va bir she'r doirasida turlicha qofiyalar qo'llanilgan. Yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, qadimgi turkiy adabiyotda ham janr tabiati domiy ravishda o'zgarib, qorishiq holatda amal qilgan. Demak, birlik she'r sistemasini, xususan, ignabarglarni ham she'riy shakl deb qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu she'riy shaklda bir necha janr xususiyatlari qorishiq holatda uchraydi.

Bundan tashqari, bugungi o'zbek she'riyatida uchlik misralarning soni ham ortib bormoqda. Bu shakl ko'proq ramz va majozlarga asoslanadi. Bahrom Ro'zimuhammadning quyidagi uchligidagi ma'noni birdan anglash mushkul:

Gapiraylik sog'inch tilida (9 bo'g'in)

Gap uqtiraylik yurakka (8 bo'g'in)

Butun narsa faqat bu tun (8 bo'g'in) (14,76).

Ushbu uchlik 9+8+8 shaklida bo'g'inlarga ajralgan bo'lib, barmoq vazni qoidalariga mos tushmaydi. Turoqlari ham 4+5; 5+4; 4+5 tarzida aralash keladi? Ayni paytda qofiya ham yo'q. Shoir bunda asosiy e'tiborni ohangga emas, fikrga, mantiqqa qaratadi va vazn, janr qonuniyatlariga amal qilmaydi, ulardan chetga chiqadi. Bunda modern tafakkur va mumtoz shakl aralashib, qorishiq holatga kelgan. Lirik qahramon sog'inch tilida so'zlab yurakka gap uqtirishni xohlaydi. Axir, ishq dardiga yo'liqqan oshiqning yuragi gapga kiradimi?! She'rda ana shunday holatda faqat tundan najot kutayotgan lirik qahramon ruhiyatidagi kechinmalar tasvirlangan.

Aruz vaznidagi mumtoz she'rlar sodda tilda yozilganligi bois o'quvchi she'rni anglashida hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Davrning turli ijodkori bo'ladimi yoki bir ijodkorning aruzda yozilgan turli janrdagi she'rlari bo'ladimi, ularning barchasi janr chegaralaridan chiqmagan holda yozilgan. Barmoqda esa unday

emas. Yuqorida aytilganidek, Istiqlol davri lirikasida yangi janrlar paydo bo'ldi, mavjud janrlarning yanada kengayishi esa ayni barmoqda yozilgan she'rlarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunga ayrim misollarni keltiramiz. Ular individual ijodiy ekspriment tarzida maydonga kelgan janrlar — *qayirma*, *ignabarg*, *uchchanoq*, *fiqra*, *tasbeh* deb nomlanadi.

Qayirma — nutqimizda obdon yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Bu so'zda pishqlik, puxtalik ma'nolari bor. Azim Suyun butun boshli "Ey do'st" she'riy kitobini *qayirma* janrida yozgan.

Shoir o'z asarlariga nisbatan "qayirmalar" ta'birini qo'llaydi. Kitob ham ikki qismdan iborat bo'lib, "She'riy qayirmalar" hamda "Nasriy qayirmalar" deb nomlangan. "Qayirma" so'zi izohli lug'atda quyidagicha tushuntiriladi: 1. Qayiriladigan, qaytariladigan; bukiladigan; buklama. ... 2. Egilgan, bukilgan, qayrilgan. ... 3. Tepki (miltiq, to'pponcha va sh.k.). Taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev esa mazkur so'zni shunday ochiqalaydi: "Qayirma so'zi tilimizda obdan yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Jumladan, qayirma patirni o'zbek qishloqlarida tajribali kayvonilargina yopa oladi. Bu barchaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ko'rinadiki, qayirma so'zida qayishlik, ya'ni pishqlik, puxtalik ma'nosi bor. Qayirma janridagi bitiklarning Azim Suyun ijodida aynan keyingi yillarda paydo bo'lgani ham shu bilan izohlanadi. Ijodkor muayyan hayotiy bosqichlardan o'tib, yetarli turmush tajribasi va kerakli poetik mahorat orttirgandan keyin o'z ijodida yoniq yurak harorati bilan falsafiy fikrchanlikni uyg'unlashtira olish imkoniga ega bo'ladi. Shunda ijodkorning bitiklariga ko'chgan tuyg'ulari o'qirmanlariga boshqacha ta'sir qiladi, ularni noyob sezimlar, hikmatomuz fikrlar bilan asir etadi" (15, 6).

Elimizning qahramon shoiri Abdulla Oripov Azim Suyunning qayirmalariga alohida e'tibor berib ularni mustaqil janr sifatida e'tirof qilinishi zarurligini ta'kidlagan edi. Quyida qayirmalar haqida fikrlarga e'tibor qaratamiz.

Qayirma — mustaqil janr

"Keyingi yillarda adabiyotda, xususan, she'riyatda yangilik yaratishga, ya'ni har xil uslub va shakllarni yangilashga bo'lgan intilish kuchaydi. Bunday qiziqish nafaqat yosh qalamkashlar, balki bir qadar suyagi qotgan ijodkorlar orasida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, katta shoir Azim Suyunning bu boradagi izlanishlarini alohida ta'kidlash zarur. Azim Suyunning qayirmalari Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi Sharqning ulug' donishmandlari asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo'ndalik kabi fazilatlariga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir. She'riyatimizda mavjud ruboiy, tuyuq, fard kabi janrlar qatoriga "qayirma" ham alohida janr bo'lib qo'shiladi. Chunki Azim Suyunning g'ayrati va mehnati bilan "qayirma" ham mustaqil janr xususiyatlarini egalladi. "Ey do'st" degan misra murojaatdangina iborat emas. U turli o'rinlarda turlicha ohang va ma'no kasb etmoqda.

To'rtlikni ma'no va shakl jihatidan yangilamoqda. Shu bilan Sharqda ming yillardan beri o'zgartirib bo'lmaydiganday tuyulgan to'rtlik, eng muhimi, yangicha ruhda ko'rinmoqda" (15, 6).

Shoirning bu yangiligi adabiyotda albatta e'tirof etiladi. Azim Suyunga ergashib bu yo'lni davom ettirishga bel bog'laydiganlar ham chiqishiga shubha qilmaymiz. "Ey do'st" bilan shoir to'rtlikni (murabbani) qayta shakl va ma'no jihatidan yangiladi. "Ey do'st" qayirmalari:

*Ey do'st!
Haq yo'lin tartibin buzayotgan kim?
Olam sirlar ipin uzayotgan kim?
Dilim menga dedi: — O'zing-ku axir
Men dedim: — Men bo'lsam tuzayotgan kim?
Ey do'st!
Dunyo barcha uchun bir jadalgoz joy
Kimning joyi sahro, kimniki saroy
Do'st bag'ri meniki, unda bo'lsa bas
Bir qadah may yoki bir piyola choy* (15, 76).

Ushbu qayirmalar mumtoz adabiyotimizdagi ruboiy, to'rtlik kabi janrlarga ham o'xshaydi. Chunki unda falsafiy, didaktik ruh ustunlik qiladi. Har bir qayirma, do'stga murojaat bilan boshlanadi va bunday usul qayirma janrining o'ziga xos xususiyatlaridandir. Bundan tashqari, Azim Suyun ijodida nasriy qayirmalar ham uchraydi. Ushbu qayirmalarda ham falsafiy ruh yetakchilik qiladi. Bir nasriy qayirmada shoir shunday deydi: "Ilm — asal. Asalari asalni faqat bir xil guldangina yig'maydi".

Azim Suyunning "qayirma"larida mavzu chegaralanmagan, ammo undagi mohiyat ildizi Umar Xayyom ruboiylarini va Ahmad Yassaviy hikmatlarini eslatadi. Tasavvufiy ohanglar va zamonaviy shakl uyg'unlashib "qayirma" degan she'riy shakl paydo bo'lgan. Albatta, bunda shoirning individualligi alohida ahamiyatga ega. Quyidagi qayirmaga e'tibor qaratamiz:

*Ey do'st!
Bu Zaminga sig'may qoldik, ketamiz,
O'zga bir olamni makon etamiz.
Unda biz orzular qilgan jannat bor,
Lekin yor bo'lmasa, aytgil, netamiz?* (15, 90).

She'rdagi ma'no Umar Xayyomga ham, Ahmad Yassaviy ijodiga hamohang. Ijodkor endi yozayotganlarini, aytmoqchi bo'lgan gaplarini o'zining qalb prizmasidan o'tkazib, keyin o'qirmanga havola qilmoqda. Lirik qahramon dunyoning mohiyatini anglab yetgan va u qanday yashashni biladi.

*Ey do'st!
Bu Azim do'st, yor ko'yida misli xasdir,
O'choqdagi yonayotgan cho'g' — besasdir.*

*Bas, bas, yetar! Faqat yorning qo'lidagi
Sharbat to'la bir piyola bo'lsa basdir (15, 89).*

Ushbu qayirmada esa ma'no Umar Xayyom ruboiylariga muqoyasa tarzda bitilgan. Lirik qahramonga o'choqdagi o'tning tafti past tuyuladi, undagi ishqni faqat yorning qo'lidagi bir piyola may bosa oladi. E'tibor beradigan bo'lsak, Umar Xayyom ruboiylaridagi chog'ir, may, soqiy, mug'bacha kabi so'zlar o'rnini do'st, sharbat, cho'g' kabi so'zlar egallagan. Demak, qayirmalarni ruboiyning zamonaviy ko'rinishi desak, xato bo'lmaydi.

Qayirmalarning yana bir muhim jihati shundaki, har bir qayirma boshlanishida "Ey do'st!" degan xitob bilan boshlanadi. Mumtoz adabiyotda bunday undovlarning kelishi nido san'atini hosil qiladi. Demak, qayirmalarning barchasida undov — nido san'ati qo'llangan. Bizningcha, "Ey do'st!" undovidan faqat do'stni tushunmaslik kerak, ushbu undov umumiylikni ifodalashini tushunish lozim. Chunki qayirmalardagi mavzu doirasi barchaga birdek. Har she'rning boshida bunday undovning kelishi esa, shoir ifodalamoqchi bo'lgan his-tuyg'uni, qalb kechinmasini va fikrini yanada kuchaytirib aytishga imkon beradi. Ayni paytda, she'rga shakily chiroy ham bag'ishlaydi.

Umumman olganda, Azim Suyun ijodidagi "qayirma"larni biz mustaqil janr sifatida belgilashimizga nazariy jihatdan asoslarimiz yo'q. Chunki, to'rtlik, ruboiy, tutyuq kabi to'rt qatordan iborat she'rlarning genezisi xalq og'zaki ijodi namunalariga, mumtoz adabiyotimiz janrlariga borib taqaladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan qayirmalarda esa, ana shu jarayonlarda yana qayta toblangan, shakliy va mazmuniy yangilangan badiiy modifikatsiyani ko'ramiz.

Ignabarg janri — faqat bir qatordan iborat she'r. Ushbu janrda Anvar Obidjon samarali ijod qilgan. Bu janr haqiqatan yangi janr, uning mumtoz adabiyotda muqobili yo'q. Ammo uni ba'zi adabiyotshunoslar janr sifatida e'tirof etishmaydi. Tadqiqotchi Qahhor Yu'lbekiev "O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasi" PhD dissertatsiyasida ushbu she'rlarni janr sifatida e'tirof etadi va bu xulosasini tahlil yo'li bilan isbotlab beradi. Adabiyotshunos U.To'ychiev birlik she'rlarni "nasriy she'r" deb ataydi. Bir qatordan iborat she'rlar — birliklar Faxriyor ijodida ham uchraydi. Anvar Obidjon bunday she'rlarni ignabarg she'rlar deb nomlaydi. Chunki ushbu she'rlarning ma'nosi o'qirman qalbiga, tafakkuriga ignadek sanchiladi. Ushbu she'rlarda xos pafos ham, falsafa ham, ohang ham mavjud. Ushbu she'rlarni birlik deya nomlagandan ko'ra, ignabarg she'rlar deb janr sifatida belgilashni ma'qul deb bildik. Zero, bu mukammalik da'vosidan yiroqdir.

Anvar Obidjonning ignabarg she'rlariga e'tibor qaratamiz (17, 244):

*Sharqda uxlab, uyg'onar g'arbda.
Go'rkovdan ham diplom so'rar u.
Didsiz suluv — nonsiz ziyofat.
Romanlarin yozarketmonda.
O'g'lidan qarz so'rar sho'rlik.*

*Inson o'ldi tug'ildi qabr.
Yoy o'qtaldi tankka bolakay.
Uxlasa sal halol yashaydi (2, 400).*

Ko'rib turganimizdek, ushbu ignabarglar o'qirmanni yaxshigina o'ygatadi. Unda inson o'y-kechinmalari bilan birga ijtimoiy jihatlar ham yaxshi yoritilgan. Qo'limizga igna kirib ketsa qanday seskansak, ignabarglarni o'qiganimizda ham ongimiz, qalbimiz shunday sergak tortadi.

Halok qildi uni...xushxabar (2, 340).

Ushbu ignabargning ma'nosini tushunish o'qirmanga bir oz qiyinlik qilishi mumkin. She'rga yuklangan ma'noni birdan anglab olishning mushkulligi shundaki, unda modern kayfiyat ustuvor. Bu ignabargda juda katta falfasa jamlangan. Maqsadga erishgan odamning boshqa orzulari qolmagan. Niyatga yetganlik — xushxabar uni halok qildi. Faylasuflar insonni orzulariga yetkazib jazolash kerak, deydilar: She'rdagi lirik qahramon ham orzularga yetib jazolangan inson. Anvar Obidjon mana shunday katta bir fojiani bir misraga joylagan. Chunonchi, “she'riyatimizning asosiy vositasi — so'z va shu orqali yuzaga chiqadigan she'riy musiqa. Xuddi o'sha narsalar inson hissiyotlariga ta'sir o'tkazadi. Bunda so'z rang o'rnida ishlatilmog'i, ko'z bilan ko'rish emas, his etish orqali moddiylashmog'i lozim” (14,170).

Anvar Obidjon, Farida Afro'z, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Shermurod Subhon, Go'zal Begim kabi ijodrlar birlik she'rlar yozgan, ammo bunday she'rlar alohida kitob holida nashr qilinmagan. Faqat Anvar Obidjon bunday she'rlarni ignabarglar deb ataydi, xolos. Boshqa ijodkorlarda bir qatorli she'rlarni nomlash holati kuzatilmaydi. Bu kabi she'rlarda ijodkor yuragi va aqlining bir xulosaga kelishini ko'ramiz. Albatta, bunday ijod namunalari she'riyatimizning shaklan va mazmunan yanada taraqqiy etishini ta'minlaydi.

“She'r, bu — nutq sistemasining spetsifik bo'yoqdagi metrik-ritmik, intonatsion-sintaktik va tovush birligidir” (19, 110). She'r strukturasi lirik asar janrini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Chunki shakl va mazmun birligi she'r strukturasi tashkil qiladi. Har bir mavzu yoki g'oya o'z shakli bilan birgalikda yaratiladi. Ijodkor oldindan mana bu shaklda she'r yozaman deb niyat qilmaydi. Avval mavzu paydo bo'ladi, undan so'ng esa u o'ziga mos shaklni topadi. Sababi — mazmun va shakl bir-biri bilan doimiy dialektik aloqada bo'ladi. O'zbek she'riyatida birlik she'rlar, ya'ni ignabarglar hali yetarli nazariy ma'lumotlar mavjud emas. Adabiyotshunos olim, D. Qur'onov bir qatorli she'rlar mavjudligini ilmiy tomondan tahlil qilgan: “... ijodiy niyat ro'yobi bo'lmish har qanday asar — bir misra yo minglab misralardan, birgina epizod yo bir necha yillik voqealardan, bir necha daqiqalik ko'rinish va yo necha pardalardan tarkib topgan bo'lishidan qat'iy nazar — badiiy kommunikatsiyaning alohida bitta birligi, to'laqonli adabiy asardir” (12, 3). Umuman olganda, adabiyotshunosligimizda, bir qatorli she'rlarni, ya'ni

ignabarglarni janr yoki she'r bo'lmagan degan xulosalar ham mavjud. Xususan, A. Rasulov Faxriyorning ikkita bir misrali she'riga munosabat bildiradi. A. Hayitov esa bir qatorli she'r genezisini mufradot janrining yanada sayqallangan ko'rinishi sifatida qayd etadi (6, 17). Aynan, mana shunday holatlarda bir janr elementlari boshqa shakllarda (yoki janrlarda) namoyon bo'ladi — modifikatsiyaga uchraydi. Ammo bunda ijodkor individualligini unutmaslik lozim.

Ignabarglarning deyarli barchasi muayyan tartibda uyushgan va to'qqiz bo'g'inli barmoq vazniga tushgan. Turoqlanishida esa ko'plab farqlarni ko'rishimiz mumkin. Ba'zi ignabarglarlar 4+5 tarzida turoqlangan bo'lsa, ba'zilari 4+2+3 yoki 4+3+2 shaklida turoqlangan:

Farzandim bor /Uylanmaganman... 4+5 (to'qq bo'g'inli).
Bu gulxaning /namuncha sovuq. 4+5 (to'qq bo'g'inli).
O'lma! Senda /o'chim bor axir! 4+5 (to'qq bo'g'inli).
Ko'r xassada / axtarar nurni! 4+5 (to'qq bo'g'inli).
O'zi omon / kitobi marhum. 4+5 (to'qq bo'g'inli).
Boshingdagi / xayol/ meniki. 4+2 +3 (to'qq bo'g'inli).
Uchib ketdi / shamolda/ boshi. 4+3 +2 (to'qq bo'g'inli) (2, 89).

Keltirilgan ignabarglarda turoqlar soni uchtdan yoki ikkitadan, ammo intonatsion-ritmik xususiyatlari ham turlichadir. "Birliklardagi nutq xususiyatlari, she'riy shakl va mazmun belgilari doimiy qatnashib, aksariyat o'rinlarda takrorlanib kelishi ignabarglarni she'r deb atashga asos bo'ladi" (11, 41), — deya xulosa qiladi tadqiqotchi Q.Yulchiyev. Ammo barcha ignabarglarda ham bu xususiyatni ko'rmaymiz. Bunday o'zgarishlar janrning qat'iy chegarasi belgilab qo'yilmaganligi, aniq tushunchasi yo'qligidan kelib chiqadi. "Ma'lum shaklni boshqa bir shaklga aylanib, o'ziga xos ko'rinish olishi va janriy idrokning evrilishi, "janrni qayta baholash", "qonuniylashmagan janrlarning paydo bo'lishi"ga mualliflarning individual janrlari rivojlanishiga olib keladi" (17, 3). Bundan tashqari, Anvar Obidjon ijodida g'azal shaklidagi she'rlar ham uchraydi. Ammo bu she'rlarda ham ijodkor g'azal janrining faqat tashqi tomonini, ya'ni shaklini oladi, xolos. She'rni esa g'azal shaklidagi she'rlar deb nomlashiga qaramasdan, maqta'da o'z taxallusi yoki ismini keltirmay o'tadi.

Tadqiqotchi Q. Yulchiyev ignabarg she'rlarni tadqiq etarkan, ularni quyidagicha tasnif qiladi:

1. Ironik she'rlar.
2. Falsafiy aforistik she'rlar.
3. Ijtimoiy-publitistik she'rlar (4, 57).

Tadqiqotchi ignabarglarni mazmuniga ko'ra shunday tasniflaydi. Mazkur tasnif faqat bitta ijodkor — Anvar Obidjon she'rlari (ignabarglari) misolida ekanligini, uning bir tomonlama tasniflanganini ko'rsatadi. Chunki bu tasnifni boshqa ijodkorlar she'rlariga nisbatan qo'llay olmaymiz (Masalan, Farida Afro'z fiqralariga). Bundan tashqari, ignabarg she'rlarda yuqoridagi tasnifning aralash kelish holatlarini ham kkuzatish mumkin. Masalan,

— *Hamma chivin xushtordir menga!* (2, 276).

Ushbu ignabargda ironik kayfiyat ham, ijtimoiy vaziyat ham mavjud. Mevali daraxtga doimo tosh otiladi, degan xalq maqolini yodga soladi ushbu she'r. She'rni o'qilishi bilan undagi ironik xususiyat namoyon bo'ladi, ammo uni yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, ijtimoiy vaziyat ham yuzaga chiqadi. Demak, ignabarg she'rlar bir necha ma'nolarni o'zida jamlay olishi mumkin.

Turk adabiyotshunosi Mehmet Kaplan "bir'ler", ya'ni bir qatorli she'rlar (ignabarglar) mumtoz she'riyatimizning mufradlariga o'xshaydi deya ta'kidlaydi. "Keskin, teran ko'zga tashlanuvchi, ...maqollarga o'xshab ketadigan bu ifoda tarzi "hikmat"ga ham yaqin keladi. Bu ham bir usul. Ba'zan bir misra chaqmoq yorug'ligida hayot va koinotning bir jabhasini yoritadi" (10, 535). Adabiyotshunos olim bu kabi she'rlarni folklor janrlari — maqol, hikmatga yaqinligini aytib o'tgan. Demak, bu bilan ignabarglarni folklor janrlari bilan qorishiq holatda ekanligini ham ko'rish mumkin. Mazkur holat ham ignabarglarning mustaqil janr emasligini ko'rsatgan, chunki bunday she'rlar modifikatsiyaga uchragan sinkretik shaklda namoyon bo'lmoqda. Rus olimi, V. P. Burich bir qatorli she'rlarni (ignabarglarni) nasr ham emas, nazm ham emas, balki ikkalasining o'rtasidagi modifikatsion hodisadir, deb yozadi va bunday she'rlarni "udeteron" (yunon: unisi ham, bunisi ham emas) deb nomlaydiki, mazkur fikrlar bilan bizning qarashlarimiz muvofiqdir. Yuqorida ta'kidlaganimiz, ignabarglarda ham boshqa janr elementlari aralashib, qorishib ketgan va biz ularni she'riy shakl degan xulosaga kelsak, janr nazariyasi, uning tarixiy kategoriyasi qonuniyatlarini buzmagani bo'lardik.

Anvar Obidjon ijodida *uchchanoq* she'rlar ham alohida ahamiyatga ega. Bunday she'rlarni Farida Afro'z *tasbeh*, Abdulla Sher *xokku*, Ulug'bek Hamdam *uchlik* deb ataydi. Ammo individual janr ma'nosida *uchchanoqlar* alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda falsafiy, majoziy, ijtimoiy, psixologik tasvirlar o'ziga xos tarzda ifodalangan. Farida Afro'z *tasbeh*larida erkin vazn, falsafiylik va didaktik ruh yetakchilik qilsa, Abdulla She'r *xokkularida* esa jahon she'riyati an'analari ustunlik qiladi. Ulug'bek Hamdamning *uchliklarida* sarlavhaning mavjudligi, modern ohang uyg'unligi va vaznning erkin tanlanishi boshqa *uchlik* she'rlardan ajralib turuvchi xususiyatdir. Bugungi o'zbek she'riyatidagi janrlarning bunday shakliy-mazmuniy turlichaligi va o'zgarib borishi, shubhasiz, shoirlarning individual ijod mahsulidir. Demak, bunday she'riy shakllarning paydo bo'lishida ijodkorning individualligini asosiy mezon qilib olish muhim.

Xususan, amerikalik olimlar Rene Uellek va Ostin Uorren yozganidek, "har qanday tanqidiy yondashuv yangi tur zanjirini, yangi janr modelini kashf etishini anglatadi" (7). Bundan ko'rinadiki, adabiyotimizdagi bu kabi she'rlar mustaqil janr emas, aksincha, mavjud janrning boshqacha shakli, yangi modelidir.

Uch misradan iborat yoki uch bandli she'rlarning ilk namunalari o'zbek xalq og'zaki ijodida va islomgacha bo'lgan adabiy manbalarda

uchraydi. Xususan, “Irq bitigi” tarkibidagi 1-, 7-, 12-, 14-, 21-, 23-, 30-, 33-, 46- raqamdagi she’rlar uchlik shaklida bitilgan, jumladan:

*Kambag‘al odamning o‘g‘li ishlagani bordi,
yo‘lini bergan, mamnun bo‘lib, sevinib kelar, der
shunday bilinglar: yaxshidir bu.*

“Irq bitigi”dagi uchliklar muayyan vaznda yozilmagan. Unda qat’iy vazn va qofiya mavjud emas.

Har bir bandi 3 qatordan iborat she’r shakli mumtoz she’riyatimizda musallas deb yuritiladi. Tadqiqotchi Q.Yulchiyev musallasning ilk namunasi sifatida Uvaysiy devonidagi musallaslarhi keltirib o‘tadi (11, 98). Ammo Uvaysiydan oldin ham musallaslar yaratilgan. Masalan, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida bunday uchliklar uchraydi. Asardagi birinchi musallas Nosiruddin To‘qbug‘a madhi bilan boshlanadi.

*Ilhoq umul tuzun qiliq
Bilig arig‘ haddin chiqa
Ko‘kdin adizrak himmati.*

*Mo‘risi beklik dinida
So‘rar ani yulnub yaqo
Qizg‘anchi uqbo milkati.*

*Asli mo‘g‘ul erkan ko‘nub
Islom uchun tutti yaqo
Bo‘ldi Rasulning ummati.*

*Toat qilur tun-kunduzun
Olnur saboq mus‘hafqa baqo
“Qur‘on” o‘qimoq odati.*

*Tasbih evurda xushlanib
Injulanur yoshi aqo
Eshitilsa “Qur‘on” oyati.*

*Erardi yavloq telim
Tuz so‘zlayur so‘zni uqo
Ortug‘ yarog‘lig‘ siyrati.*

*Rabdin ato bo‘lub anga
Haq bermishi qutlug‘ baqo
Ko‘rkluk sifatlig‘ surati.*

*Ezgu qiliq birla yurub
Do‘st qizg‘anur dushman baqo
Ortar qamug‘din hurmati.*

*Kunduz o‘qur, tunda qo‘par
Toat qilur kirur suqo
Arslon mengizlik savlati .*

Yoshi kichik yo‘ni ulug‘

Zoti orig' bek To'qbo'g'a
Ul Nosiruddin kunyati.

El oshasun, yuz yashasun
Bo'lub muti' mavlosig'a
Mundin ziyoda qurbati (18, 10).

Ushbu musallas 11 bandli bo'lib, har bandning ikkinchi va uchinchi qatorlari o'zaro qofiyalanib kelgan. Aruzning rajazi murabbayi solim vaznida yozilgan.

Mustaf'ilun / mustaf'ilun
 Mustaf'ilun / mustaf'ilun.
 Taqte'si:

— — v — / — — v —
 — — v — / — — v —

Har bandning ikkinchi misralarida och qofiyalar ham uchraydi, ammo har bandning uchinchi misralari to'q qoyifada yozilgan. Demak, uchchanoqlarning kelib chiqishini aynan musallas sheriylar shakllariga bog'lasak xato bo'lmaydi. Uchchanoqlar musallasning zamonaviylashgan, modifikatsiyalashgan ko'rinishidir

Bundan tashqari, bandlari uch qatordan iborat bo'lgan she'rlar xalq og'zaki ijodida ham uchraydi. Jumladan, folklorshunos R. Nosirovning "Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi" deb nomlangan monografiyasida uch qatordan iborat she'rlar — xalq qo'shiqlari to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotchi Q. Yulchiyev o'z mulohazalari asosida o'zbek she'riyatidagi uch misrali she'rlarni ikki ko'rinishga ega ekanligini ilgari suradi. Birinchisi, har bandi uch misradan iborat bir necha bandli she'rlar, ikkinchisi esa mustaqil uch qatorlik she'rlar. Ko'rindiki, birinchi holatdagi uch misralik bir necha banddan iborat she'rlar musammatning turi sifatida qaralishi kerak. Keyingi uch misralik mustaqil she'rlar esa o'zbek she'riyatida shakliy izlanishlarning mahsulidir. Bunday she'rlar Anvar Obidjon, Rauf Parfi, Farida Afro'z, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor va boshqa shoirlar ijodida ham uchraydi.

Demak, uchlik she'r shakllanishida o'zbek folklori va mumtoz adabiyotining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uch misradan iborat topishmoq va maqollarning ham mavjudligi, mumtoz adabiyotdagi yuqorida ko'rib o'tgan misollarimiz uchlik she'rlarning genezisini, tarixiy kategoriyasini qadim o'tgan asrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

O'zbek she'riyatida shakliy-uslubiy izlanishlarning go'zal namunalarini Anvar Obidjon ijodida ko'rish mumkin. Jumladan, shoir g'azal shaklida she'rlarini *g'azalsimonlar*, to'rtlik shaklidagi hajviy she'rlarini *to'rtqavatlar*, *so'taruboiylar*, uch misrali she'rlarini *uchpaxsa*, ikkilik she'rlarini *ikkiqatlar*, bir misrali she'rlarini esa *o'rtabarmoq* (1, 53) deb ataydi. Uchchanoqlar ham shunday shakliy izlanishlarning mahsulidir. Shoir ushbu she'rlarni uchchanoq deb nomlaydi. Uchchanoq — nomidan anglashilgandek uch misradan iborat she'r. U mumtoz adabiyotdagi musallas she'r shakli kabi uch

misradan iborat. Uchchanoqlar strukturasiga to'rtlik she'r tuzilishining modifikatsiyaga uchragan shakli sifatida qaralsa to'g'riroq bo'ladi. Chunki to'rtlikdagi falsafa, mazmun-mohiyat aynan uchchanoqlarda ham uchraydi.

*Rahmat senga, ey burga
Qonim ichsang ham birga
Yurding og'ir kunimda.*

*Xudo ma'yus ko'zimda
Shayton yashar so'zimda
Tilim juda do'zaxi.*

*U- pahlavon, botir
Olar lek ko'p xavotir
Miltig'i bor jinnidan (2, 97).*

Xulosa qilqib aytganda, uchchanoq she'rlarni mustaqil janr sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq emas. Garchi uchlik she'rlar qadimdan mavjud bo'lsa-da, janr sifatida shakllanmagan, faqat she'riy shakl sifatida mavjud bo'lgan, janrlilik chegarsi, uning xususiyatlari aniq belgilab berilmagan. Istiqloq yillarida yaratilgan uchlik, uchchanoq kabi she'rlarni janr sifatida belgilashimizga nazariy asos yo'q. Uchchanoqlarda folklor, mumtoz adabiyot janrlari elementlari, ijodkor individualligi qorishib ketganligini ko'raqmiz. Davr o'tgani sayin yangi fikrlarni aytish uchun yangi shakllar kerak bo'ladi. Uchchanoq va ignabarglar ham ana shunday shakllardandir.

Farida Afro'z ijodida fiqralar alohida o'rin tutadi. Fiqra — arabcha “qism, bo'lak” ma'nolarini anglatadi. Fiqra — adabiy-badiiy asardan olingan hikmatli so'z, go'zal parcha. Shoir she'riyatida fiqra alohida ahamiyat kasb etadi. U fiqralarni “Tashbih” kitobiga kiritgan. Fiqralarda diniy mulohazalar, tasavvufiy qarashlar va qalb kechinmalari yetakchilik qiladi.

Quyida ba'zi fiqralarni ko'rib o'tamiz.

*Qashshoqlik
davlatdir
Nodonlikdan ko'ra.*

*Sen unchalar badbaxt emassan
Tanimaysan
Baxtingni xolos.*

*Quyushqonga sig'mas ijodkor
Sarhad uning o'limi demak
Chegaradir unga qabriston.*

*Yana to'lg'onish
Yana iztirob
Soat millari sayrab tolmaydi.
Shoir — shamolda sham ko'tarib ketayotgan kimsadir
(4, 206).*

Ko'rib turganimizdek, fiqralarda mavzu deyarli chegara bilmaydi. Unda inson qalbidagi iztiroblar, to'lg'onishlar ijtimoiy voqealar bilan qorishib ketadi. Ular o'qirman ko'ziga ko'zga tutadi va uni o'zini anglashga undaydi. Adabiyotshunos olim, professor Q.Yo'ldoshev shoira Farida Afro'z kitobiga yozgan so'zboshida shoiraning "fiqra"lari haqida shunday deydi: "fiqra" so'zi, garchi adabiyotimiz tarixida "fiqrai rangin" yo'sinida birikmali qo'llangan bo'lsa-da, u adabiy janr emas, balki asarlardan olingan go'zal parchalarni anglatadi. Farida Afro'z fiqrani janr maqomiga chiqarib, bu nom ostidagi bitiklarda o'z ruhiyatining parchalarini ifodalashga uringan. Shoira fiqraning shakliy xususiyatlarini qat'iylashtirishga, undagi so'zlar miqdori va bitik kompozitsiyasini tayin qilishni maqsad etmagan" (5, 9). Demak, fiqralarni ham janr sifatida emas, she'riy shakl sifatida e'tirof etsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, she'r shaklda va mazmunda chegara bilmaydi. Quyida shoiraning bir necha fiqralarini tahlilga tortamiz.

*Tulki-ku tumshug'dan ilinar, shaksiz,
Bo'rining og'zi qon, yesa-yemasa,
Tegirmondan butun chiqar Bu Odam! (4, 149).*

Ushbu tasbehda shoira qilgan gunohlari uchun oxirida tulki ham, bo'ri ham qanday jazo olishini aytadi, ammo so'nngi misrada Odamning bunday holatlarga ham chap bera olishi, tegirmonga tushsa-da, butun chiqa olishi tasvirlangan. Tasbeh 11 bo'g'inli barmoq vaznida yozilgan bo'lib, 6+5 tarzda turoqlangan. Ammo she'rda qoyifa mavjud emas.

*Yangi yilda
Eski do'stim-la
Chala qolgan gapdan gaplashdik (4, 117).*

Ushbu tasbehda esa turmush tashvishlari o'z girdobiga tortib ketgan odamning hayoti tasvirlangan. She'rdagi lirik qahramon o'ziga, o'z do'stiga vaqt ajrata olmaydi. Hammasini chala tashlab ketaverdi. Ushbu tasbeh insonni o'ylashga, yashashdan maqsadini anglashiga qaratilgan. She'ning shakliy ko'rinishi ham chala qolib ketgan gap kabi sochilib ketgan, ya'ni erkin.

*Sumbula-yu, sumbula,
Sening ko'ngling kim bilan?
Men ketaman dil bilan (4, 45).*

Mazkur tasbehda esa mumtoz ohanglar va folklor uyg'unligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Lirik qahramon "men ketaman dil bilan" deya qat'iy qaror qiladi. She'rda musiqiylik va ohangdorlik alohida ajralib turadi. Ushbu tasbeh yetti bo'g'inli barmoz vazniga to'g'ri keladi, 4+3 tarzida turoqlangan.

*Ayol Erning bir burdasi...
Ammo, Ilohiy jazo
Qovushsalar-da, qo'shilib ketmaslar (4, 97).*

She’rda esa diniy nuqtayi nazardan Odam zotining qilgan gunohiga ishora qilinadi. She’rda ayol erkak zotining qovurg’asidan yaralgan bo’lsa-da, qo’shilib ketmasligi va bu ilohiy jazo ekanligiga urg’u berilgan. Ko’plab tasbehlarda diniy tushunchalar bilan bog’liq haqiqatlar o’rinli tasvirlangan.

*Shohimardonni sel bosgach,
Bir masjid omon qoldi.
Masjidda hech kim yo ‘q edi, afsus... (4, 87).*

Mazkur tasbehda inson o’zi qilishi kerak bo’lgan ishni qilmay, vaqtini, umrini aysh-u ishratga sarflagani tasvirlangan. Bundan tashqari, Shohimardonni suv bosganiga ham ishora mavjud. Masjid bu yerda inson qalbi deya tushunilsa, she’rning mazmuni yanada kengayadi. Inson qalbini qo’riqlay olsa, o’z qalbiga quloq solsa, har qanday falokatdan uzoq bo’ladi.

Xulosa. Demak, individual janrlar muayyan ijodkorning uslubi bilan bog’liq holda yuzaga kelgan janrlardir. Ulardagi mazmun chegara bilmaydi, ularning shakli esa aruz vaznidagi fard, musallas, murabba’ kabi janrlarga yaqin. Bu hodisa o’zbek she’riyatida janrlarning turg’un emasligi va doim rivojlanib, sayqallanib borayotganidandir. Bunga insoniyatning dunyoqarashidagi o’zgarishlar, evrilishlar sabab bo’ladi. Chunki endi she’riyat go’zallikni tashqaridan emas, ichkaridan, inson botinidan izlay boshladi va bu o’zbek she’riyatini mazmunan va shaklan o’zgartirib yubordi. Bunday hodisalardan biri — individual janrlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvar Obidjon. Bezgakshamol — 2. Hajviy hangomalar. — T.: Sharq, 2003. — 187 b.
2. Anvar Obidjon. Tanlangan she’rlar. — T.: Sharq, 2006. — 276 b.
3. Ben Jonson. Qaydlar yoki kuzatishlar // G’arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. — T.: Fan, 2008. — B. 209–221.
4. Farida Afro’z. Tasbeh. Chetki, Posary. Muharrir va so’zboshi muallifi Q.Yo’ldoshev. — T.: Sharq, 2007. — 218 b.
5. Go’zal Begim. Uchayotgan yaproq soyasi. — T.: Yozuvchi, 2002. — 189 b.
6. Hayitov A.H. 90-yillar o’zbek lirikasida an’ana va shakliyl izlanishlar. Fil.fan.nom...diss. avtoreferati. — T., 2004. — 58 b.
7. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o’zbekcha izohli lug’ati. — T.: O’qituvchi, 1983. — 202 b.
8. Mahmud Toir E. Ikkiliklar. O’zbekiston adabiyoti va san’ati. — T.: 2009, 1-may. — 9 b.
9. Mamatqulov M.R. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi. Fil.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan disser.avtoreferati. — T.: 2004, TAI. — 56 b.
10. Mehmet Kaplan. Cumhuriyet devri turk şiiri. — Ankara: Başbakanlik Basimevi, 1990. — 535 s.

11. Yulchiyev Q. O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasi. Fil.fan.bo'yicha.falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Farg'ona, 2017. — 128 b.
12. Quronov D. Talqin imkoniyatlari. — T.: Turon zamin ziyo, 2015. — 189 b.
13. Rasulov A. Struktura va strukturalizm. To'plamda: Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. — 214 b.
14. Ro'zimuhammad Bahrom. Cho'lpon — tong yulduzi demak... — T.: O'qituvchi, 1997. — 187 b.
15. Suyun Azim. Qayirmalar yoxud Azimnoma. — T.: Akadernashr, 2003. — 234 b.
16. Vohidov E. Sochilgan baytlar. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. — T.: 2009, 11-aprel. — 8 b.
17. Боровская А. А. Жанровые трансформации в русской поэзии первой трети XX века. Автореферат дис...канд. фил...наук. — Астрахань, 2009. — 58 с.
18. Носируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. — Т.: Ёзувчи, 1990. — 289 б.
19. Руднев П.А. Из истории метрического репертуара русских поэтов XIX – начала XX в. //Теория стиха. — Ленинград: Наука, 1968. — С. 107–144.

References

1. Anvar Obidjon. *Bezgakshamol* – 2. *Hajviy hangomalar* (Bezgakshamol - 2. Humorous noises), Tashkent: Sharq, 2003, 187 p.
2. Anvar Obidjon. *Tanlangan she'rlar* (Selected Poems), Tashkent: Sharq, 2006, 276 p.
3. Ben Jonson. *G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari* (Essays on the History of Western Literary and Critical Thought), Tashkent: Fan, 2008, pp. 209–221.
4. Farida Afro'z. *Tasbeh. Chetki, Posary*, Tashkent: Sharq, 2007, 218 p.
5. Go'zal Begim. *Uchayotgan yaproq soyasi* (Flying Leaf Shadow), Tashkent: Yozuvchi, 2002, 189 p.
6. Hayitov A.H. *90-yillar o'zbek lirikasida an'ana va shakliy izlanishlar. Fil.fan.nom...diss. avtoreferarti* (Researches of Tradition and Form in Uzbek Lyrics of the 1990s), extended abstract of candidate's thesis, Tashkent: 2004, 58 p.
7. Hotamov N, Sarimsoqov B. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati* (Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Literary Terms), Tashkent: Uqituvchi, 1983, 202 p.
8. Mahmud Toir E. *Uzbekiston adabiyoti va san'ati*, 2009, May, 1, 9 p.
9. Mamatqulov M.R. *Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi*. (Poetics of genres in ancient Turkish literature), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent: 2004, 56 p.
10. Mehmet Kaplan. *Cumhuriyet devri turk şiiri* (Cumhuriyet Period Turkish Poetry), Ankara: Başbakanlık Basimevi, 1990, 535 p.

11. Yulchiyev Q. *O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasi*. (Poetics of one and three poems in Uzbek poetry), PhD thesis, Ferghana, 2017, 128 p.
12. Kuronov D. *Talqin imkoniyatlari* (Interpretation Possibilities), Tashkent: Turon zamin ziyo, 2015, 189 p.
13. Rasulov A. *Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti* (Uzbek Literature of the Period of Independence), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 214 p.
14. Ro'zimuhammad Bahrom. *Cho'lpon — tong yulduzi demak...* (Cholpon Means the Morning Star), Tashkent: Uqituvchi, 1997, 187 p.
15. Suyun Azim. *Qayirmalar yoxud Azimnoma* (Letters or affidavit), Tashkent: Akademnashr, 2003, 234 p.
16. Vohidov E. *Uzbekiston adabiyoti va san'ati*, Tashkent, 2009, April, 11, 8 p.
17. Borovskaya A. A. *Zhanrovye transformatsii v russkoi poezii pervoi treti XX veka* (Genre transformation and Russian poetry in the first half of the 20th century), extended abstract of candidate's thesis, Astrakhan, 2009, 58 p.
18. Nosiruddin Burxonuddin Rabruzii. *Kisasi Rabguzii* (The Story of Rabguzi), Tashkent: Yozuvchi, 1990, 289 p.
19. Rudnev P.A. *Teoriya stikha* (The Theory of Verse), Leningrad: Nauka, 1968, pp. 107–144.